



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛIMDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH.

*Oliboyeva Dilbar Rahimqulovna*

*O'zbekiston Finlandiya pedagogika*

*Instituti Maktabgacha ta'lism (kuduzgi)*

*1-bosqich talabasi.*

**Annotation:** ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilingan yangi ta'limgiz tizimi ya'ni inklyuziv ta'limgiz tizimining takomillashuvi, 2020-2025 yillarda xalq ta'limgiz tizimida inklyuziv ta'limgiz rivojlantirish konsepsiyasining pedagogik mohiyati ,mактабгача та'lим тизимидаги имконияти cheklangan bolalarga o'z tengdoshlari qatori ta'limgiz berish va shu bilan bir vaqtida ularning ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab individual yondashish , inklyuziv ta'limgiz maqsadi va vazifalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'limgiz, tarbiya,pedagogik tahlil, metod, harakat,rivojlanish,ijodiy yondashuv,uyg'ulashish,tamoyil, jarayon.

Inklyuziv ta'limgiz alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'limgiz tarbiya olishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir. Inklyuziv ta'limgiz olish jarayoni bir-biriga o'xshamaydigan, intellektual,jismoniy va aqliy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar maxsus bilimga muhtoj bo'limgan tengdoshlari bilan birgalikda zarur bilim va ko'nikmalarni oladigan tarzda tashkil etiladi. Inklyuziy ta'limalohida ehtiyojlari bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'limgiz olish imkoniyatini yaratadi. UNICEF inklyuziv ta'limgiz O'zbekiston ta'limgiz tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'limgiz vazifasi bolalarning qobiliyatlarini va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'limgiz taqdim etish. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'limgiz tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan maktabda ta'limgiz olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordam olishi darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'limgiz ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limgiz-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori bilan tasdiqlangan “2020–2025 yillarda xalq ta'limgiz tizimida inklyuziv ta'limgiz rivojlantirish konsepsiyasini”da alohida ta'limgiz ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'limgiz xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:



- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar shuningdek tegishli kadrlar bilan ta'minlash alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Imkoniyati cheklangan fuqarolarning statistikasiga murojaat qiladigan bo'lsak,O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishslash amaliyotini takomillashtirish mavzusi naqadar dolzarb ekanligini yana bir bor ko'rish mumkin. 2019-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakatimiz bo'yicha rasmiy tarzda 710 mingga yaqin imkoniyati cheklangan shaxslar ro'yxatga olingan.

Ularning 101 ming nafarini 16 yoshgacha bo'lgan imkoniyati cheklangan bolalar tashkil qiladi[3,1].Imkoniyati cheklangan har bir bolaning o'z oilasida yashab tarbiyalanish huquqini ta'minlash maqsadida ta'limning ustuvor shakli sifatida umumiyl, ya'ni inklyuziv ta'lim belgilangan. Bu ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga oilada yashash, ota-onal mehridan bahramand bo'lib o'z mahallasida tengqurlari orasida umumiyl ta'lim olish imkonini beradi.

Inklyuziv ta'limning joriy etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. «Umumta'lim» va «Maxsus ta'lim» o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak.Inklyuziv ta'lim (inglizcha "inclusion - uyg'unlashgan, jalb qilingan") "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda "barcha o'quvchilar uchun maxsus o'quv ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim olish imkoniyatini teng ravishda ta'minlash" deb belgilangan.

Inklyuziv ta'lim jarayonida pedagoglar tomonidan:

- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- o'quv topshiriqlarini bajarishda imkoniyati cheklangan bolalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- imkoniyati cheklangan bolani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta'minlash;
- mashg'ulotlarning loyihalashtirilishiga e'tiborning qaratilishi nafaqat o'qitish sifatini yaxshilaydi samaradorligini oshiradi.  
ylanmaydi.

Maktabgacha alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta'limini takomillashtirish yo'nalishlari quyidagilarga asoslanadi:

- erta tashxisni yo'lga qo'yish;
- maxsus ehtiyojli bolalarga nisbatan jamiyatda ijobiy munosabat uyg'otish;
- ota-onalar va hamjamiatning ishtirokini kuchaytirish;
- o'qitish uchun zarur vosita va asbob-uskunalarning mavjudligini ta'minlash;
- ta'limmuassasalarini jismoniy va ruhiy rivojlanishida kamchiligi bor bolalarga ham imkoniyat yaratishni e'tiborga olgan holda moslashtirish;
- kadrlar tayyorlash jarayonida islohotlarni amalga oshirish;
- pedagoglarning inklyuziv malakasini oshirish uchun tez-tez seminar-treninglar o'tkazish;
- inklyuziv ta'limni joriy qilish bo'yicha xalqaro va milliy tajribalarga asoslangan holda, multimedia kutubxonalarini tashkil etish va ularni ommaga targ'ibot qilish;
- har bir umumiy Maktabgacha ta'limtashkilotilari tasarrufida inklyuziv ta'limni targ'ibot qilish, o'quv metodik majmualar, dasturlar bilan ta'minlash va joylardagi mahalliy xalq ta'limi organlari bilan o'zaro aloqa o'rnatish, axborotlarni yetkazish vazifasini bajaruvchi pedagoglar, ota-onalar ishtirokida jamoaviy kengash tuzish talab etiladi

Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.

O'tgan yigirma yil davamida maxsus ehtiyojli bolalrni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.

"Bog'lanish"-bu so'zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalaruchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Bola mifik binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki mifik xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy mifikdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Yangi mifik binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda rejallashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Alatta nogiron bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchunhyech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni

shundaki, o'quv reja, dastur va darsiliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integrasiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi. Malakaviylik tamoyili. Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

Inklyuziv ta'limga moslashuvchanlik tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsiliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integrasiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi. Malakaviylik tamoyili. Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida shumi aytish mumkinki imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bolalar qatorida sifatli ta'limga olishini ta'minlangan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarni va harakatlarni rivojlantirishdir. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni ma'suliyatini his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga kata umid bilan qaraladi. Ko'plab mamalakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham imkoniyati chaklangan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablar mavjud ularning vazifasi esa ularni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlash hamda ijtimoiy hayotga moslashuviga shart-sharoit yaratishdir.

### Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston respublikasi Maktabgacha ta'limga tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori PQ- 4312 08.05.2019.
2. "Nogiron shaxslar huquqlari" to'g'risidagi Deklarasiya (1975 yil)
3. "Bola huquqlari to'g'risidagi" Konvensiya -1989 yil;
4. R.Shomaxmudova "Inklyuziv ta'limga nazariy va amaliy asoslari"- Razzoqov O.JToshkent-2007 yi
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'limga olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limga tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaror-4860 13.10.2020
6. Shomaxmudova .R.Sh Inklyuziv ta'limga (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar) Toshkent-2011 2. Xodjayev. B Umumiy Pedagogika nazariyasi va amaliyoti Toshkent-2017 (188bet)



7. “Ta’lim hamma uchun” Milliy dasturi rejasi Toshkent-2003
8. “Maktablar hamma uchun”- „ Bolalarni qutqaring jamg’armasi”-2002
9. “Ta’lim hamma uchun” - Dakar deklaratsiyasi-2002
- 10.“Ta’lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari” mavzusidagi ilmiy –amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005

